



DAVLAT TEST MARKAZI

*Bilimingga ishon va muvaffaqiyatga erish!*

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASI  
DAVLAT TEST MARKAZI

UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTABLARI, AKADEMIK LITSEYLAR  
VA KASB-HUNAR KOLLEJLARI O‘QUVCHILARINING  
UMUMTA’LIM FANLARI BO‘YICHA  
OLIMPIADASINING IV (RESPUBLIKA) BOSQICHI  
ISHTIROKCHILARI UCHUN

AMALIY GEOGRAFIYA  
FANIDAN  
TEST TOPSHIRIQLARI KITABI

---

*Ishtirokchining familiyasi, ismi va otasining ismi*

---

*Imzo*

1–variant

© Davlat test markazi, 2022

Ushbu test varianti 40 ta (1–40) topshiriqdan iborat.

Test topshirig'i uchun ajratilgan ball har bir test topshirig'ida aks ettirilgan.

Kitobda yopiq va ochiq turdagi test topshiriqlari mavjud:

- yopiq turdagi test topshiriqlarida bitta javobni (A, B, C yoki D) tanlang va javoblar varaqasidagi topshiriq raqamiga mos qatorga yozing;
- ochiq turdagi test topshiriqlarining javobini javoblar varaqasidagi topshiriq raqamiga mos qatorga aniq va tushunarli tarzda yozing;
- moslashtirishni talab qiluvchi yopiq test topshiriqlari uchun umumiy oltita (A–F) javob varianti berilgan, uchta topshiriqqa (38-, 39-, 40-test topshiriqlariga) ushbu javoblar orasidan mos ravishda bittadan javob tanlang va javoblar varaqasiga belgilang.

1.

[1,3 ball]

Tabiiy geografiya doirasida shakllangan fanlar va fanlarning o'rganish obyektlari.

1	geokriologiya	a	qor va muzliklarni o'rganadi
2	glyatsiologiya	b	daryolar va ko'llarni o'rganadi
		c	iqlim xususiyatlarini o'rganadi
		d	ko'p yillik muzloq yerlarni o'rganadi

Fanlar va ularning o'rganish obyektlarini moslashtiring.

- A) 1-c, 2-b    B) 1-d, 2-a    C) 1-b, 2-a  
D) 1-d, 2-c

2.

[1,3 ball]

Topografik xaritada ko'priklar tavsifining shartli belgisi.

$$T \frac{12 - 8}{14}$$

Shartli belgidagi 8 soni ko'priknining qaysi o'lchovini ifodalashini toping.

- A) yuk ko'tarish qobiliyati ( $t$ )  
B) suv sathidan balandligi ( $m$ )  
C) kengligi ( $m$ )  
D) uzunligi ( $m$ )

3.

[2,4 ball]


Agar topografik xaritaning masshtabi 1:125 000 bo'lsa, undagi kilometrli to'r kataklarining tomonlari necha santimetrga teng bo'lishini **aniqlang**.

- A) 0,8    B) 1    C) 1,5    D) 0,6

4.

[3,4 ball]

Ushbu rasmda geolog turgan nuqtaga nisbatan mayoqning azimuti  $290^\circ$  ga teng.



Geolog turgan nuqtaga nisbatan binoning yo'nalishi ufq tekisligining qaysi oraliq tomoniga mos kelishini aniqlang.

- A) janubi-sharq-sharq  
B) shimoli-sharq-sharq  
C) shimol-shimoli-sharq  
D) janub-janubi-sharq

5.

[1,3 ball]

Okean qirg'oqlarining to'liqlar tomonidan yemirilish va tekislanish jarayoni nima deb atalishini **toping**.

- A) qalqish    B) abraziya    C) eroziya  
D) nurash

6. [2,4 ball]
- Qutb kunini Shimoliy qutbda davom etish muddati 186 kun, Janubiy qutbda esa 179 kun ekanligining asosiy sababini **aniqlang**.
- A) Yer o'z o'qi atrofida bir xil tezlikda harakatlanmasligi  
 B) Yer shakli to'liq shar shaklida emasligi  
 C) Yer orbita bo'ylab turli tezlikda harakat qilishi  
 D) Yer o'qi orbitasi tekisligiga nisbatan  $66,5^\circ$  burchak hosil qilishi
7. [1,3 ball]
- Toroslar** bu ... .
- A) okean suvining ustida qalashib yotgan muzlar  
 B) okeandagi eng yirik molluskalar  
 C) shamolsiz kunlar  
 D) tirik organizmlar faoliyati natijasida hosil bo'lgan orollar
8. [2,4 ball]
- Atlantika okeani havzasiga tegishli daryolar to'g'ri ko'rsatilgan javobni **aniqlang**.
- 1) Orinoko;  
 2) Nil;  
 3) Zambezi;  
 4) Dunay;  
 5) Volga  
 A) 1, 2, 5 B) 2, 3, 4 C) 1, 2, 4 D) 2, 3, 5
9. [3,4 ball]
- Atlantika okeaniga oid ma'lumotlar berilgan javobni **toping**.
- A) okeanning o'rta kengliklarida iliq oqimlardan Shimoliy va Janubiy passat oqimlari, ularning orasida Passatlararo qarshi oqim harakatlanadi  
 B) subtropik iqlim mintaqasining sharqiy qismida suvning harorati past bo'ladi, yog'in kam yog'adi; g'arbiy qismida yil davomida suvi iliq, harorati ancha yuqori bo'ladi, yog'inlar ko'p (1000 mm) yog'adi  
 C) okean tubida qalinligi 1000-3500 m bo'lgan dengiz, daryo yotqiziqlari katta maydonda tarqalgan; okean tagi suvosti tog' tizmasi (balandligi 2500-3300 m) bilan ikki qismga bo'lingan  
 D) meridian yo'nalishda cho'zilgan, shimoliy va janubiy qismlarga bo'lingan suv osti tog' tizmasi bor. Bu tizmaning tepa qismini ko'ndalang va bo'ylama chuqur daralar – riftlar kesib o'tgan
10. [1,3 ball]
- Kelib chiqishi tektonik bo'lgan ko'llar berilgan javobni **aniqlang**.
- 1) Orol;  
 2) Vinnipeg;  
 3) Tanganika;  
 4) Balxash;  
 5) Marakaybo;  
 6) Issiqko'l  
 A) 1, 3, 4 B) 2, 5, 6 C) 1, 4, 5 D) 2, 3, 6
11. [2,4 ball]
- Kongo daryosining suv sarfi yil davomida deyarli o'zgarmasligining asosiy sababini **ko'rsating**.
- A) daryoning, asosan, ko'llar va yerosti suvlaridan to'yinishi  
 B) havzasida yillik yog'inlarning bir me'yorda yog'ishi  
 C) havzasining maydonini kattaligi  
 D) irmoqlarining ko'pligi

12. [3,4 ball]
- Afrika materigining tabiatiga oid ma'lumotlar berilgan javobni **toping**.
- A) *subtropik zonasi qattiq bargli doimiy yashil o'rmonlar va butazorlardan tarkib topgan; sohil va tog' yonbag'irlarida zaytun, pakana palma, probka emani, kiparis, kap kashtani o'sadi*
- B) *ekvatorial o'rmonlar zonasi ekvatorning har ikki tomonida katta maydonni egallagan; o'simlik olamiga boy – 4 000 ga yaqin daraxt turi uchraydi; suv havzalarida tapirlar, qalin o'rmonlarda yaguar yashaydi*
- C) *shimoliy tropik mintaqasida cho'l va savannalar zonalarini tarkib topgan; cho'llarida o'simlik qoplami siyrak, savannalariga qalin qoplamli, baland bo'lyi o't o'simliklar xos*
- D) *materikning savannalar zonasida sernam savanna o'rmonlari, quruq savanna, cho'lga aylangan savanna, siyrak o'rmonli savanna va butazorli savanna tabiat komplekslari shakllangan*
13. [1,3 ball]
- O'rta Osiyo o'lkasida 1200 m dan 2000 m gacha bo'lgan balandliklarda tarkib topgan balandlik tabiat mintaqasini **toping**.
- A) *nival* B) *o'rmon* C) *dasht*  
D) *o'rmon-dasht*
14. [2,4 ball]
- O'rta Osiyo hududining rivojlanish tarixining mezozoy erasida sodir bo'lgan geologik voqealar va paleogeografik sharoitning o'zgarishlarini **belgilang**.
- 1) Markaziy Qizilqum past tog'lari ko'tarilgan;  
2) Kaspiy bo'yidagi past tog'lar va balandliklar ko'tarilgan;  
3) tog' oraliqlarida va botiqlarda sayoz dengiz qo'ltiqlari hosil bo'lgan;  
4) tog' burmalanishi kuchli bo'lgan;  
5) Ustyurt platosi vujudga kelgan.
- A) 3, 4, 5 B) 2, 3, 5 C) 1, 2, 5 D) 1, 3, 4

15. [2,4 ball]
- O'rta Osiyo hududining rivojlanish tarixining paleozoy erasida sodir bo'lgan geologik voqealar va paleogeografik sharoitning o'zgarishlarini **belgilang**.
- 1) Markaziy Qizilqum past tog'lari ko'tarilgan;  
2) Kaspiy bo'yidagi past tog'lar va balandliklar ko'tarilgan;  
3) Orol cho'kmasi ilk bor Amudaryo va Sirdaryo suvi bilan to'lgan;  
4) Chirchiq-Ohangaron okrugi yer yuzasining tarkib topishi boshlangan;  
5) eraning oxirida tog'lari yemirilib yassitog'larga aylana boshlangan.
- A) 2, 3, 4 B) 1, 4, 5 C) 3, 4, 5 D) 1, 2, 4
16. [1,3 ball]
- Suvi Chorvoq suv omboriga **QUYILMAYDIGAN** daryoni toping.
- A) *Piskom* B) *Chatqol* C) *Ugom*  
D) *Ko'ksuv*
17. [2,4 ball]
- Matnni o'qing.
- “Antropogen davr jinslari orasida 1-20 m chuqurliklarda joylashgan suvlari biroq sho'rlashgan; paleogen va neogen yotqiziqlarining 90-100 m chuqurligida joylashgan suvlari sho'r emas; 400-500 m chuqurliklarda bo'r davri yotqiziqlari orasidagi yerosti suvlari chuchuk bo'lib ichishga yaroqli”.*
- Berilgan ma'lumotlar qaysi tabiiy geografik okrugning yerosti suvlariga tegishli ekanligini aniqlang.**
- A) *Surxondaryo* B) *O'rta Zarafshon*  
C) *Quyil Amudaryo* D) *Mirzacho'l*
18. [1,3 ball]
- Respublikamizda sement ishlab chiqarish korxonalarini joylashgan hududlarni **belgilang**.
- 1) Surxondaryo viloyati;  
2) Xorazm viloyati;  
3) Toshkent viloyati;  
4) Farg'ona viloyati;  
5) Navoiy viloyati;  
6) Qashqadaryo viloyati
- A) 2, 5, 6 B) 1, 3, 6 C) 1, 4, 5 D) 2, 3, 4

19.

[3,4 ball]

Zarafshon iqtisodiy rayoniga oid ma'lumotlar berilgan javobni **toping**.

- A) Rayon sanoati, asosan, qazib oluvchi sanoat hisobiga yuksak rivojlangan. Strategik ahamiyatga molik gaz-kimyoy majmuasi faoliyat ko'rsatmoqda. Tuproq va iqlim sharoiti ingichka tolali paxta, sabzavot, kartoshka va mevalar yetishtirishga qulay.
- B) Rayonda ikkita neftni qayta ishlash korxonasi bor; kimyo korxonalarida ikki xil mineral o'g'itlar ishlab chiqarmoqda; qurilish materiallari, shoyi, kulolchilik buyumlari ishlab chiqarish markazlari shakllangan. Qishloq xo'jaligi yuksak intensivligi bilan ajralib turadi.
- C) Rayonda yirik IES, neftni qayta ishlash korxonasi, rangli metallurgiya va mashinasozlik korxonalarini faoliyat yuritmoqda. Qurilish materiallaridan sement, kimyo mahsulotlaridan mineral o'g'itlar va sintetik tola ishlab chiqarilmoqda. Respublika ahamiyatiga ega kon-metallurgiya kombinati bor.
- D) Rayon qazilma boyliklarga juda boy. Elektroenergetika, qora va rangli metallurgiya, kimyo sanoati korxonalarini ichki va tashqi bozor uchun mahsulot yetkazib bermoqda. So'nggi o'n yillikda yirik mashinasozlik korxonasi barpo etildi. Hududida uchta sanoat rayonlari vujudga kelgan.

20.

[1,3 ball]

Jahon xo'jaligining asosiy sohalari birlashtirilgan sektorlar va korxonalar (tashkilotlar, muassasalar).

- 1) Birlamchi sektor;
  - 2) Ikkilamchi sektor;
  - 3) Uchlamchi sektor.
- a) Chirchiq transformator zavodi;  
b) "Buyuk Ipak Yo'li" banki;  
c) "Oqcha" ovchilik xo'jaligi.


**Sektorlar va ularning tarkibi to'g'ri moslashtirilgan javobni toping.**

- A) 1-a, 2-b, 3-c    B) 1-b, 2-c, 3-a  
C) 1-a, 2-c, 3-b    D) 1-c, 2-a, 3-b

21.

[2,4 ball]

Davlatlar va ularga oid ma'lumotlar.



- 1) prezidentlik respublika;
- 2) unitar davlat;
- 3) aholining tabiiy kamayishi xos;
- 4) relyef tuzilishi ishlov beriladigan yerlarni tanqisligiga olib kelgan;
- 5) kemasozlik, elektrotexnika, elektronika sanoatining yetakchi tarmoqlari qatoriga kiradi;
- 6) to'liq shakllangan megalopolisi mavjud.

**Berilgan ma'lumotlar asosida Eyer-Venn diagrammasining kesishmasiga mos tushadigan to'g'ri javobni toping.**

- A) 2, 4, 5    B) 4, 5, 6    C) 3, 4, 5    D) 1, 2, 3

22.

[3,4 ball]

Gaz sanoatiga oid to'g'ri ma'lumotlarni **belgilang**.

- 1) hozirgi kunda gazni qit'alararo (quvursiz) eksport qilishga ham imkoniyat mavjud;
- 2) tabiiy gazning qazib olish tannarxi toshko'mirga nisbatan arzon, lekin uning issiqlik koeffitsienti toshko'mirnikidan past;
- 3) tabiiy gaz sintetik tola va sintetik kauchuk, plastmassa ishlab chiqarish uchun xomashyo hisoblanadi;
- 4) Norvegiya Yevropadagi eng yirik gaz eksportyorlaridan biri hisoblanadi;
- 5) OPEKning rasmiy ma'lumotlariga ko'ra (2017-y.) O'zbekiston tabiiy gaz qazib olish bo'yicha jahonda birinchi o'ntalik mamlakatlar guruhiga kirgan;
- 6) Shimoliy dengiz sayozliklari tabiiy gaz zaxirasiga boy.

- A) 3, 4, 6    B) 2, 3, 4    C) 1, 5, 6    D) 1, 3, 5

23. [3,4 ball]
- Rangli metallurgiyaga oid to'g'ri ma'lumotlarni **belgilang**.
- 1) mis bilan rux qorishmasiga melxior deyiladi;
  - 2) Janubi-sharqiy Osiyoda qalay-volfram mintaqasi mavjud;
  - 3) qiyin eruvchi metallarni olishda juda ko'p elektr energiyasi sarflanadi;
  - 4) Norvegiyada GES larda ishlab chiqariladigan arzon elektr energiya negizida aluminiy sanoati rivojlangan;
  - 5) Afrika materigida mashhur mis mintaqasi joylashgan;
  - 6) rangli metallar domna pechlarida eritib olinadi.
- A) 3, 5, 6    B) 1, 3, 5    C) 1, 2, 4    D) 2, 3, 4

24. [2,4 ball]
- Qanday chora "issiqxona samarasi" muammosining ta'sirini keskin kamaytirishini **aniqlang**.
- A) jahon aholisining o'sish sur'atini pasaytirish
  - B) qishloq xo'jaligida "yashil inqilob" yutuqlarini joriy etish
  - C) dunyo xo'jaligida noan'anaviy energetikani keng qo'llash
  - D) keng ko'lamda rekultivatsiya ishlarini olib borish

25. [3,4 ball]
- Jamiyat bilan tabiat o'rtasidagi munosabatlarning qishloq xo'jaligi inqilobi davriga xos bo'lgan ma'lumotlarni **toping**.
- A) tabiiy muhitni muhofaza qilish asosiy vazifaga olib chiqilgan, resurslarning qayta tiklanishi jamiyat hisobidan amalga oshirilgan, ekologik qonunchilik yanada takomillashgan, «ekologik madaniyat inqilobi» yuzaga kelgan
  - B) insonning tabiatga bo'lgan ta'siri kuchaya boshlagan, hunarmandchilik rivojlangan, xo'jalikda tabiiy resurslardan keng qo'llanila boshlangan; atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanishga qaratilgan qonunlar yozma ravishda o'rnatilgan va amal qilingan
  - C) tabiiy landshaftlar tez sur'atlarda o'zgara boshlangan; qishloq xo'jaligida tub burilish amalga oshirilgan; geotizimlarda ekologik tanglik vujudga kelgan; tabiat bag'ridan uning boyliklari ayovsiz yulib olingan, regional miqyosdagi geoeologik muammolar tarkib topgan
  - D) geotizimlar eng kuchli o'zgargan; tabiiy resurslar juda katta miqyosda o'zlashtirila boshlangan; turli shakl va miqyosdagi geoeologik muammolar tarkib topgan; ekologik bilim, ong, madaniyat shakllangan va rivojlangan; ekologik tashkilotlar tuzila boshlangan

26. [1,3 ball]
- Vakillarning umumiy soni bo'yicha jahonning birinchi beshtaligiga kiradigan millatni **toping**.
- A) yavaliklar    B) panjobliklar    C) yaponlar
  - D) bengallar

27.

[3,4 ball]


**Migratsiyaga oid** ma'lumotlar keltirilgan javobni **toping**.

- 1) 2021-yil oktabr oyida 4000 ga yaqin Suriya, Iroq va Afg'oniston fuqarolari G'arbiy Yevropa davlatlarida boshpana topish maqsadida Belarus va Polsha chegarasida to'plandi.
  - 2) Janubiy Amerika materigining Atlantika bo'yidagi o'lkalarda yashovchi hindular yevropalik bosqinchilar tomonidan materik ichkarisida hayot kechirishi uchun noqulay yerlarga siqib chiqarildi.
  - 3) 2020-yil fuqarolarni doimiy ro'yxatga qo'yishga oid ma'lum turdagi cheklovlarning bekor qilinishi natijasida Toshkent shahriga ko'chib keluvchilarning soni ortdi.
  - 4) Buyuk geografik kashfiyotlar Atlantika okeanidan boshlangan. Mashhur dengizchilar shu okean orqali safarga chiqishgan.
  - 5) BAA da aholining 90 % ga yaqinini Janubiy Osiyo va Shimoliy Afrika davlatlarining fuqarolaridan tarkib topgan xorijiy ishchilar tashkil etadi.
  - 6) Yevropaliklardan birinchi bo'lib Avstraliya quruqligiga qadam qo'ygan kishi niderlandiyalik Uilyam Yanszondir. U 1606-yilda Keyp-York yarimorolini o'rganib chiqdi.
- A) 1, 3, 4    B) 4, 5, 6    C) 2, 3, 6    D) 1, 2, 5

28.

[3,4 ball]

Xaritada **A** nuqtada sana 21-mart 2022-yil, mahalliy vaqt 7<sup>00</sup>.



**B** nuqtadagi sana va mahalliy vaqtni aniqlang.


Javob: \_\_\_\_\_

**Diqqat!** Javobingizni javoblar varaqasiga ko'chirib yozing.

29.

[3,4 ball]

Chizmadagi **A** nuqtada havo bosimi 760 mm Hg, **B** nuqtadagi havo harorati  $-1,8^{\circ}\text{C}$  ga teng.



**Chizmada gorizontalar necha metr dan o'tkazilganligini aniqlang.**

Javob: \_\_\_\_\_

**Diqqat!** Javobingizni javoblar varaqasiga ko'chirib yozing.

30.

[3,4 ball]

Matnni o'qing.

*“Shimoliy Amerika materigining Buyuk ko'llaridan shimoldagi tabiat zonalari kenglik bo'yicha tarkib topgan bo'lsa, janubdagi tabiat zonalari deyarli meridian yo'nalishida joylashgan. Materikda  $40^{\circ}$  sh.k. paralleli bo'ylab sharqdan g'arb tomonga aralash va keng bargli o'rmonlar zonasi o'rmon-dashtlar va dashtlar, chalacho'llar va cho'llar, qattiq bargli doimiy yashil o'rmonlar va butazorlar zonalari bilan almashinadi”.*

**Keltirilgan ma'lumotlarda geografik zonallikning qaysi qonuniyati namoyon bo'lganini aniqlang.**

Javob: \_\_\_\_\_

**Diqqat!** Javobingizni javoblar varaqasiga ko'chirib yozing.

31.

[2,4 ball]

Matnni o'qing.

“Zamin-baraka” fermer xo'jaligining hisobotidan:

1. Kuzda 4 ga yer butazorlardan tozalanib, tekislashtirilib shudgor qilindi.
2. Bahorda bu yerlarga organik o'g'itlar solindi va yana bir bor shudgor qilindi.
3. Qatorlar shaklida yerga yuqori hosildorlikka ega olma ko'chatlari ekildi.
4. Ko'chatlar orasiga yer unumdorligini oshirish maqsadida beda ekildi.

**Fermer xo'jaligida amalga oshirilgan ishlar majmuasi dehqonchilikda nima deb atalishini aniqlang.**

Javob: \_\_\_\_\_

**Diqqat!** Javobingizni javoblar varaqasiga ko'chirib yozing.

32.

[3,4 ball]

Matnni o'qing.

“Mintaqada Yer shari aholisining 8,5 % i yashaydi (2017-y.). Hozirgi davrda mamlakatlari tug'ilish darajasi asta-sekin pasayishi bilan tavsiflanadigan demografik o'tishning 3-bosqichini kechirmoqda. Bir necha mamalakatlari aholi tabiiy ko'payishining past darajasi bilan ajralib turadi. Aksariyat davlatlari yuqori urbanizatsiyalashgan mamlakatlar guruhiga mansub. Jahon miqyosida yirikligi bilan ajralib turadigan shaharlarida “soxta urbanizatsiya” holati shakllangan”.

**Keltirilgan ma'lumotlar qaysi mintaqaga oid ekanligini aniqlang.**


Javob: \_\_\_\_\_

**Diqqat!** Javobingizni javoblar varaqasiga ko'chirib yozing.

33.

[3,4 ball]

Shahar aholisi soni 01.01.1995 y. ma'lumotiga ko'ra 2 187 000 kishini tashkil qilgan.



**Grafikdan foydalanib shahar aholisi 1995-yilning yakuniga qadar necha kishiga ko'payganini aniqlang.**

Javob: \_\_\_\_\_

**Diqqat!** Javobingizni javoblar varaqasiga ko'chirib yozing.

34.

[2,4 ball]

Chorvoqda yillik yog'in miqdori 650 mm, namlanish darajasi 0,65 ga teng bo'lsa, mumkin bo'lgan yillik bug'lanish miqdorini **toping**.

Javob: \_\_\_\_\_

**Diqqat!** Javobingizni javoblar varaqasiga ko'chirib yozing.

35.

[3,4 ball]

Bengazi shahri ( $32^{\circ} 07'$  sh.k.,  $20^{\circ} 05'$  shq.u.) da mahalliy vaqt  $14^{00}$  bo'lganda, Mexiko shahri ( $19^{\circ} 25'$  sh.k.,  $99^{\circ} 10'$  g'u.) dagi mahalliy vaqtni **aniqlang**.

Javob: \_\_\_\_\_


**Diqqat!** Javobingizni javoblar varaqasiga ko'chirib yozing.



36.

[2,4 ball]

Tabiiy geografik okrugning sxematik xaritasi.



Sxematik xaritada Zirabuloq va Turkiston tog'larini qaysi raqamlar bilan belgilanganini mos ravishda aniqlang.

Javob: \_\_\_\_\_

**Diqqat!** Javobingizni javoblar varaqasiga ko'chirib yozing.

37.

[3,4 ball]

Yevrosiyo materigining yozuvsiz xaritasi.



Xaritadan foydalanib Hindixitoy yarimoroli va Fors qo'ltig'i qaysi iqlim mintaqalarida joylashganini mos ravishda aniqlang.

Javob: \_\_\_\_\_

**Diqqat!** Javobingizni javoblar varaqasiga ko'chirib yozing.

38-40.

Jadvaldagi ma'lumotlardan foydalanib, 38-40-test topshiriqlariga (A-F) javob variantlarini moslashtiring (har bir topshiriqqa bittadan to'g'ri javob mos keladi).

Topshiriqlar	Ma'lumotlar
<p>38. [2,4 ball] Buyuk Xitoy tekisligiga oid ma'lumotlarni <b>aniqlang</b>.</p> <p>39. [2,4 ball] Quyida Zarafshon tabiiy geografik okrugiga oid ma'lumotlarni <b>aniqlang</b>.</p> <p>40. [2,4 ball] Qozog'iston davlatining tabiiy sharoitiga oid ma'lumotlarni <b>aniqlang</b>.</p>	<p>A) Yerusti tuzilishi har xil bo'lib, tekisliklar, qoldiq tog'lar va ular orasidagi botiqlardan iborat. Hududida doimiy oqar suvlar (janubidagi tranzit daryodan tashqari) va ko'llar yo'q.</p> <p>B) Hududi zaminida eng qadimgi kristall jinslardan tarkib topgan platforma yotadi. Platformaning yuzasi daryolar keltirgan alluvial yotqizilardan tashkil topgan.</p> <p>C) Tektonik botiqda joylashib, negizi paleozoy erasi ohaktosh slaneslaridan iborat bo'lib, uning ustini mezozoy va kaynazoy eralarining cho'kindi jinslari—mergel, gil va qumtoshlar qoplab olgan.</p> <p>D) Hududi, asosan, tekisliklardan iborat bo'lib, katta qismi tropik iqlim mintaqasida joylashgan. Yozi juda issiq, qishi iliq.</p> <p>E) Relyefida tekisliklar hukmronlik qiladi. Shimoliy qismida dasht va chalacho'llar tabiat zonalarini shakllangan, iqlimi mo'tadil keskin kontinental.</p> <p>F) Hududining yuzasi past-baland qirlarni eslatadi. Katta qismi mo'tadil va subtropik, janubiy qismi esa tropik mintaqalarda joylashgan.</p>